



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

**Ravshanova Ruxshona Husen qizi**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti, 3-kurs talabasi*

*O'zbekiston, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani*

[ravshanovaruxshona758@gmail.com](mailto:ravshanovaruxshona758@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha, o'yin, muammoli o'qitish, guruhli ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vizual metodlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash, muloqot, ijodkorlik, hamkorlik va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar asoslab berilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishning samarali mexanizmlari, amaliy mashg'ulotlar va interfaol metodlarning afzalliklari haqida so'z yuritilgan.*

*Ushbu maqola o'qituvchilarga zamonaviy metodlardan samarali foydalanish, o'quvchi faolligini oshirish va dars jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiya, ta'lim, zamonaviy texnologiya, amaliyot, motiv, dars jarayoni, o'quvchilar, pedagogika, axborot texnologiyalari, metod, kompetensiya, interfaol usullar.*

**ABSTRACT:** *This article highlights the importance of using innovative methods in primary education, their impact on students' development, and their role in increasing educational efficiency. It analyzes the use of modern pedagogical technologies such as project-based learning, games, problem-based teaching, group work, ICT, and visual-audio methods. The focus is placed on the development of students' independent thinking, creativity, collaboration, and digital literacy through innovative practices. In addition, competency-based approaches, practical methods, and interactive techniques that enhance student engagement and learning outcomes are discussed in detail.*

*This paper also provides recommendations for teachers on effectively integrating innovative methods into lessons to make the learning process more interactive, engaging, and results-oriented.*

**Keywords:** *innovation, education, modern technology, practice, motivation, learning process, students, pedagogy, information technology, competence, interactive methods.*

### KIRISH

Boshlang'ich ta'lim har bir bolaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kuzatuvchanlik va



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



o'rganishga bo'lgan qiziqish shakllanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Innovatsion metodlar — bu zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuasi bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quvchilarni faollashtirish, bilim olish jarayonini qiziqarli, faol va ijodiy muhitda tashkil etishdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish O'zbekiston ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchi ehtiyojiga mos, qiziqarli va samarali bo'lishi kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarni o'rganishga undaydi, bilimni izlanish, tahlil va muloqot orqali egallash imkonini beradi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi asosida tashkil etiladi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l boshchi, maslahatchi va motivator sifatida ishtirok etadi. O'z ishiga ixlos bilan qaragan pedagog darsni ijodiy tashkil etib, o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, qiziqishi va o'ziga ishonchini oshiradi.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'yinli metodlar, loyiha ishlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jamlash, darsda faol ishtirok etish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

### NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda quyidagi metodlar o'quvchilar faolligini sezilarli darajada oshiradi:

1. Loyiha metodi – o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlashga o'rgatadi.
2. O'yin metodlari – o'quv jarayonini qiziqarli va jonli qiladi.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – ta'limda interaktivlikni kuchaytiradi.
4. Guruhli ishlash – hamkorlikni, jamoaviylikni mustahkamlaydi.
5. Muammoli o'qitish – tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.
6. Vizual va audiovizual metodlar – o'quvchilarning diqqatini jalb etadi va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Amaliy mashg'ulotlar, masalan, “Qochib ketgan sonlar”, “Teskari sanoq”, “Keyingi sonni top”, “Ovalni top”, “Postlar qo'yish”, “FSMU” kabi metodlar o'quvchilarda diqqat, tafakkur, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar dars jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

### MUHOKAMA

Innovatsion texnologiyalar mohiyatan yangilik kiritish, o'qitishning samaradorligini oshirish va o'quvchini o'qish jarayonining markaziga aylantirishni nazarda tutadi. “Innovatsiya” so'zi “innovate” (yangilash) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ta'limda yangi g'oyalar, metodlar va texnologiyalarni joriy etishni anglatadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ta’lim mazmunini yangilaydi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot, amaliy faoliyat va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchilardan yangicha fikrlash, zamonaviy vositalardan foydalanish, darslarni interfaol tashkil etishni talab qiladi. Natijada, ta’lim jarayonida o‘quvchi sub’ektga aylanadi, ya’ni bilimni faol o‘zlashtiruvchi shaxs bo‘lib shakllanadi.

### XULOSA

Yuksak ma’naviyatga ega, barkamol va sog‘lom avlodni tarbiyalash, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta’lim berish — zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois, har bir o‘qituvchi o‘quvchini o‘qishga, bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, uning ma’naviy dunyosini boyitishi lozim.

Darslarda o‘yin, loyiha, AKT, guruhli ish va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, hamkorlik, mas’uliyat va ijodkorlikni rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda o‘z fikriga ega, tafakkurli, ma’naviy yetuk shaxsni shakllantiradi.

Shundagina biz ertangi kunning ishonchli egalari bo‘lgan farzandlarni barkamol, bilimli va vatanparvar qilib tarbiyalay olamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
4. Xodjayeva D., Shodmonova Sh. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Hasanov A., Sattorov A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
6. G‘ulomova M. Innovatsion metodlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020
7. To‘xtayeva D. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Jonayeva M. Interfaol metodlar – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omil. – “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, №2, 2022.
9. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2017.





10. Niyozmetova N. Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanishning samaradorligi. –  
“Pedagogika va psixologiya” jurnali, №4, 2021.

